

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI
”SANOAT TEXNOLOGIYA” FAKULTETI
“EKOLOGIYA VA ATROF MUHIT MUXOFAZASI”
ta'lim yo'nalishi
“AMALIY EKOLOGIYA” FANIDAN

REFERAT

**MAVZU: BIOXILMA XILLIKNI SAQLASH
BO'YICHA MILLIY STRATYEGIYASI.**

Bajardi:

**E-371 guruh talabasi
To'laboeva Dilnoza**

Qabul qildi:

kat. o'q. Ahmedov Shaxriyor

Qarshi -2014й

BIOXILMA –XILLIKNING MAZMUNI VA AHAMIYATI.

REJA:

Kirish

- 1.** Bioxilma - xillik nima?
- 2.** Hududimizning biologik turli-tumanligi.
- 3.** Respublikamizning bioxilma-xilikni saqlash borasidagi ishlari.

Xulosa

Kirish

22 may – Xalqaro bioxilma-xillik kuni. Mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, sayyoramizda har soatda bittadan hayvon va o'simlik turi yo'qolmoqda. Flora va faunaning ko'pgina noyob turlariga butunlay qirilib ketish xavfi tahdid solmoqda. Jahon hamjamiyati bunday ekologik muammolarni bartaraf etish va barqaror rivojlanishga erishish maqsadida 22 mayni Xalqaro bioxilma-xillik kuni sifatida keng nishonlaydi.

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida tabiatning betakror obidalarini asrab-avaylash, o'rmonlar maydonini kengaytirish, noyob o'simlik va hayvon turlarini muhofazalash, tabiatga yetkazilayotgan salbiy ta'sirlarni kamaytirishga ulkan e'tibor qaratilmoqda. Respublikamiz **1995- yilda bioxilma-xillikni saqlash to'g'risidagi** xalqaro konvensiyaga qo'shilgan.

Mamlakatimizda biologik resurslarni muhofazalashning o'ziga xos huquqiy mexanizmi yaratilgan. Bioxilma-xillikni saqlash milliy strategiyasi va harakat rejasi ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmoqda. Unda belgilangan vazifalar bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etilayotgani tufayli alohida muhofaza etiladigan hududlar kengayib, tabiatimizning nodir mavjudotlari va yashil boyligimizni asrab-avaylash, ko'paytirish imkoniyati oshmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga qarashli "**Jayron**" ekomarkazida amalga oshirilayotgan ishlar bunga misol bo'la oladi. Mazkur markazda jayron, qulon, Prjevalskiy oti singari noyob jonzorlar ko'paytirilmoqda. Markaz o'ziga xos florasi jihatidan ham mutaxassislar e'tiborini o'ziga jalb etmoqda. Bu yerda **28** o'simlik oilasiga mansub ikki yuzdan ziyod turni uchratish mumkin. Shu hududda mavjud ornitofaunaning **37** foizini tashkil etuvchi qushlarning aksariyati "**Qizil kitob**"ga kiritilgan.

1. *Bioxilma-xillik nima?*

Bioxilma-xillik - bu Yerdagi turli tuman hayotning xilma-xilligidir. Bioxilma-xillik deganda ko'z oldimizga o'simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlarning boy xilma-xil turfa olami keladi. Bioxilma-xillik o'z ichiga quyidagilarni oladi.

1. *Genetik xilma xillik;*

2. *Turlar xilma-xilligi;*

3. *Ekotizimlarning xilma-xilligi.*

Genetik xilma-xillik - Yer sayyorasidagi tarqalgan organizmlarning genetik axborot hajmini o'z ichiga oladi.

Turlar xilma-xilligi - Yer sayyorasidagi tirik organizm turlarning turli-tumanligini o'z ichiga oladi.



Ekotizimlarning xilma-xilligi - biosferadagi yashash (hayot) muhitlari va biotik jamoalarni turli xil tumanligini, kechayotgan ekologik jarayonlar xilma-xilligini o'z ichiga oladi.

Olimlarning fikricha, Yerdagi taksonomik jihatdan aniqlangan turlarning soni **13 millionga** yaqindir.

Hozirgi paytgacha, Yer yuzida **1,75 million** turlar aniqlangan bo'lib, ulardan **750000** - hasharotlar, **41000** - umurtqali hayvonlar, **250000** – o'simliklar tashkil etadi. Qolgan turlar-murakkab tarkibdagi umurtqasiz hayvonlar, suv o'tlari, mikroorganizmlar va boshqa organizmlardan iborat. Hozirgi kunda biz ko'rayotgan bioxilma-xillik Yerdagi tashqi va ichki tabiiy jarayonlar natijasida yuz million yillar davomida kechgan murakkab evolyutsiya jarayonining natijasi va hosilasidir. So'nggi yillarda tabiatda antropogen (shuningdek, texnogen) ta'sirning zo'rayganligi, ekologik o'zgarishlarning sodir bo'layotgani hamda

o'rmonlar (ayniqsa, nam tropik o'rmonlar) egallagan hududlarning o'rmonlarning kesilishi natijasida qisqarishi natijasida bioxilma-xillikka putur yetdi, ko'plab o'simlik va hayvonot turlari butunlay yo'qoldi yoki ularning soni keskin kamaydi. Bioxilma-xillik bu sayyoramizning hayot resurslarini saqlab qolish demakdir. BMT ma'lumotlariga binoan, Yer yuzi aholisi tez ko'payib borayotgan bir paytda, **hayvonot dunyosi 3/1** qismga kamayib bormoqda. Xususan, **21 % sut emizuvchilar**, **30 % sudralib yuruvchilar**, **12 % qushlar**, **17 % akulalar** hamda **27 % korallar** Yer yuzidan batamom yo'qolib ketishi mumkin. Ayniqsa, Yevropada industrial rivojlanish tufayli qishloq xo'jaligi hududlaridagi **qushlar** soni **40 %** ga, iqlim o'zgarishi tufayli **dengiz qushlari** soni esa **44 %** ga kamaygan. Bu ma'lumotlarga qaraganda bioxilma-xillik misli ko'rilmagan darajada kamayib bormoqda, o'simlik va hayvonot turlarining yo'qolish sur'ati nihoyatda yuqoridir.

1992- yil Braziliyaning **Rio-de-Janeyro** shahrida o'tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining "**Atrof-muhit va rivojlanish**" bo'yicha Xalqaro anjumanida "**Biologik xilma-xillik to'g'risida Konvensiya**" qabul qilingan. Bioxilma-xillik to'g'risida Konvensiyaning maqsadi sayyoramizda bioxilma-xillikni saqlash, uning tarkibiy qismlaridan va genetik resurslaridan barqaror, adolatli va teng foydalanishdir. O'zbekistonda bioxilma-xillikni saqlashda qonun muqofazasi ostida olingan tabiiy quduqlar alohida muhim o'rin tutadi. **2004 -yil 3- dekabrda** "**Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'risida**"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilingan. Mazkur qonunning vazifasi - tipik, noyob, qimmatli tabiiy ob'ektlar va majmualarni, o'simliklar va hayvonlarning irsiy fondini saqlab qolish, inson faoliyatining tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatishi oldini olish, tabiiy jarayonlarni o'rganish, atrof tabiiy muhit monitoringini olib borish, ekologik ma'rifat va arbiyani takomillashtirishdan iboratdir. **1998 -yil 1 – aprelda** O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga qo'shilgan bo'lib bu borada hukumatimiz tomonidan Biologik xilma-xillikni saqlash Milliy strategiyasi va harakat rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, Konvensiyaning muhim tamoyillari O'zbekiston Respublikasining

"O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi (26.12.1997y.), "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi (26.12.1997y.) hamda boshqa qonunlarida o'z aksini topgan. Aytib o'tish lozimki, O'zbekistondagi flora va fauna tarkibi, ya'ni bioxilma-xilligi **27 000** o'simlik va hayvonot turlari dunyosidan tarkib topgan. O'zbekiston faunasi ya'ni hayvonlar olami o'z ichiga **97 tur** sutemizuvchilarni, **424 tur** qushlarni, **58 tur** hasharotlarni, **83 tur** baliqlarni oladi. O'zbekiston florasi, o'simliklar olami esa **4 100 dan** ortiq o'simliklarni o'z ichiga oladi. Olimlar fikricha, **Tabiat - bu uzun chambarchas zanjir**dir, binobarin har bir o'simlik va hayvonot turining yo'qolishi Yer sayyorasi ekotizimini, Biosferani xavf ostiga qo'yadi. O'z navbatida bioxilma-xillik Biosferadagi modda va energiya almashuvida kechayotgan biogeokimyoviy sikllarning barqarorligini ta'minlashda asosiy omil hisoblanib, yerdagi hayotning asosidir. Tabiiy ekotizimlar xilma-xilligi o'z navbatida o'simlik va hayvon turlarining turli-tumanligini ta'minlaydi hamda tuproq sifatini yaxshilaydi, suv va havoni tozalaydi. har bir tur esa tegishli ekotizimning zarur uzviy elementi hisoblanadi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bioxilma-xillik - hayot mezonidir, uni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash bizning umumiy manfaatimizdir. Bu jarayonda yoshlarimizning atrof tabiiy muhit muhofazasi yo'nalishdagi yaratuvchanlik, bunyodkorlik sifatlarini namoyon etish hamda dahldorlik hissiyatini uyg'otish ayniqsa hozirgi kunning muhim vazifasidir.

2. Hududimizning biologik turli-tumanligi.

Insoniyat tabiatning bir bo‘lagi. O‘simliklar olami, hayvonot dunyosi, bioxilma-xillik butun borliq bir ekotizimdir. Hududimiz biologik turli-tumanligi mamlakatimizning milliy boyligidir.

O‘zbekiston o‘zining barqaror rivojlanishi uchun **1995-yilda** bioxilma-xillik to‘g‘risidagi xalqaro Konvensiyaga qo‘shildi.

Istiqlolning dastlabki yillaridan hududimiz bioxilma-xilligini muhofazalashga katta e‘tibor qaratilib kelinadi. Uning huquqiy asoslari yaratildi va takomillashtirilmoqda. **1992 -yil** «*Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida*», **1993 yil** «*Alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar to‘g‘risida*», **1993 yil** «*Suv va suvdan foydalanish haqida*» qonun qabul qilindi.

Ma’lumki, o‘simliklar va hayvonot olamini muhofaza qilish, bioxilma-xillikni saqlashda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tarmog‘i katta ahamiyatga ega. Respublikamizda umumiy maydoni **2164 km²** dan iborat bo‘lgan **9 ta** davlat qo‘riqxonasi, umumiy maydoni **6061 km²** bo‘lgan **2 ta** milliy bog‘, maydoni **12186,5 km²** bo‘lgan **9 ta** davlat buyurtmaxonasi va noyob hayvon turlarini ko‘paytirish bo‘yicha respublika «*Jayron*» ekomarkazi hamda «*Sayxun*» parvarishxonasi mavjud.

Yovvoyi hayvonlar va o‘simliklarning noyob turlarini ko‘paytirish bo‘yicha muassasalar tabiatni muhofaza qilish va bioxilma-xillikni saqlab qolishning eng samarali yo‘lidir. Respublikamizdagi mavjud davlat qo‘riqxonalari, davlat buyurtmaxonalari va markazlarida hududimiz faunasida turlari kamayib, yo‘qolib borayotgan noyob hayvon va o‘simliklar muhofaza ostida, tabiiy sharoitda yashaydi, o‘sadi. Masalan, qo‘mitamiz tasarrufidagi Buxoro viloyatida joylashgan «*Jayron*» ekomarkazi hududida hayvonlarning **8 turi** mavjud, maydoni **7 122 gektarni** tashkil etadi. Toshkent viloyatidagi Chotqol davlat biosfera qo‘riqxonasining umumiy maydoni **35 724 gektardan** iborat, hayvonlarning **152 turi**, o‘simliklarning **700 turi** uchraydi .

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, yer yuzida insonning tabiatga noto‘g‘ri munosabati oqibatida, o‘simliklarning ming yillar davomida tashkil topgan tabiiy manzarasi o‘zgarib, qashshoqlashib, yashil olam o‘zining ko‘rkini yo‘qotmoqda, tabiatning ekologik muvozanati

buzilmoqda. Yana tabiiy maydonlar shiddat bilan o'zlashtirilayapti. Oqibatda o'simliklarning noyob turlari, endem turlar tabiatdan yo'qolib ketish xavfi ostida. Bu esa o'simliklar genofondining kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Tabiatda har qanday o'simlik turining yo'qolishi uni tiklab bo'lmaydigan oqibatlarga olib keladi. Respublikamiz florasini nihoyatda boy. Hududimizda **4 500 ga** yaqin yovvoyi o'simlik va **2 000 dan** ortiq zamburug' turlari mavjud. Ular orasida muhofazaga muhtoj ko'pgina kamyob, endem va relikt turlar ham bor. Bunday turlarning soni **400 atrofida**, ular O'zbekiston florasining **10-12 %** tashkil etadi. Yurtimiz tabiatidagi **lola** va **sallagullar**, qimmatbaho o'simliklarimiz noyob turlar hisoblanadi, dunyoga dong'i ketgan.

«**Botanika**» ilmiy ishlab chiqarish markazi olimlarining tadqiqotlari o'z samarasini berayapti. Keyingi yillarda viloyatlarda olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz tufayli ba'zi yo'qolib borayotgan o'simliklarimiz turi ko'paydi va areallari kengaydi. **Masalan, Korolkov za'faroni, Noksimon normushk, Suvorov piyozi, Anzur piyoz...**

Floramizning ko'rki — **Nurota moviyguli** faqat Nurota tog'larida, **Oqtog' moviyguli** — Janubi-g'arbiy Qizilqumdagi qoldiq tog'larda, **Buxoro tangao'ti** — Xisor tog' tizmasidagina o'sadi va juda nodir hisoblanadi. Bunday noyob turlarni asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish har birimiz uchun ham qarz ham farzdir.

Tabiatimizning biologik va landshaft xilma-xilligi milliy boyligimiz. Bu boylik bir necha ming-ming yillik evolyutsiya davomida paydo bo'lgan hamda ajdodlarimiz ulardan oqilona foydalanib, bizga meros qoldirgan.

Afsuski, o'tgan yuz yillikning so'nggi 50-60 yilida tabiiy yaylovlarimiz shiddat bilan o'zlashtirildi, suv, botqoq tizimiga putur yetdi. Oqibatda cho'l, yarim cho'l, dashtlardagi betakror cho'l biologik majmualarimiz keskin qisqarib ketdi.

Fauna — bioxilma-xillikning muhim bo'g'ini. O'zbekiston hayvonot olami juda qadimiy hamda o'ta murakkab genetik rishtalar orqali o'zaro bog'langan. Hududimizda Yevroosiyo cho'llari, Hindi-Xitoydan, O'rta Yer dengizi atroflaridan kirib kelgan guruhlarining ham muayyan o'rni bor. Hududimiz faunasida **umurtqali hayvonlarning 677 turi** (sut emizuvchilar — **108**, **qushlar 432**, **sudralib yuruvchilar 58**, **amfibiylar** — (suvda va quruqlikda yashovchi) **2**, **baliqlar 77 turi** mavjud. Faunaning har bir turi — tarixan takrorlanmas, genetik jihatdan yagona, har qanday biologik hamjamoada faqat o'ziga xos o'ringa ega.

Istiqlolning dastlabki yillaridan davlatimiz hududimiz faunasini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratib keladi. Tizimni takomillashtirishning mustahkam huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekiston **1997- yilda «Yo'q bo'lib ketish havfi ostidagi yovvoyi fauna va flora turlarining xalqaro savdosi to'g'risida»**gi xalqaro konvensiya, **2001- yilda esa «Xalqaro ahamiyatga ega, ayniqsa suvda suzuvchi qushlarning yashash joylari bo'lgan suv-botqoqli joylar to'g'risida»**gi (Ramsar) konvensiyalariga qo'shildi.

Bu boradagi ilmiy salohiyat oshirildi, hayvonot olamining areallari, suv-botqoq tizimi, to'qayzor, o'rmonzorlar kengaytirildi. Markaziy Osiyo mintaqasida kamyob hayvonlarni ko'paytirish, ularni saqlash va reintroduksiya qilish uchun «**Jayron**» ekomarkazi faoliyat ko'rsatyapti. Bu yerda yaqin o'tmishda tabiatda yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan qulon, yo'rg'a tuvaloq, jayron kabi kamyob turlar ko'paytirilyapti.



lola



sallagul

3. Respublikamizning bioxilma-xillikni saqlash borasidagi ishlari.

Umumjahon **atrof-muhit kunini nishonlash to'g'risida 1972** -yilda **Stokgol'm** shahrida BMTning atrof-muhitga bag'ishlangan Konferensiyasida qaror qabul qilingan edi. Ushbu qarorning maqsadi - xalqaro hamjamiyatning e'tiborini atrof-muhit muhofazasi muammolariga hamda global ekologik inqirozning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni qabul qilishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi "Barkamol avlod yili" Davlat dasturining ijrosi yuzasidan hamda ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mahsadida, joriy yilning **5 iyun**-kuni **Umumjahon atrof-muhit** kuniga bag'ishlangan bayram tadbirini tashkil etayapti. Joriy yilda 5-iyun Umumjahon atrof-muhit kuni **"turlarning ko'pligi - yagona sayyora - yagona kelajak"** mavzusida o'tkazilmoqda. Ma'lumki, BMT Bosh Assemblyasi tomonidan **2010 yil** - **"Xalqaro bioxilma-xillik yili"** deb e'lon qilindi. Ushbu yilning ustuvor vazifalaridan biri - aholi o'rtasida bioxilma-xillikni saqlab qolish zamon talabi ekanligi, unga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish borasida samarali va sifatli targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish, atrof-muhit muhofazasi hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida hamkorlikda faoliyat ko'rsatish hisoblanadi. Bioxilma-xillikni saqlab qolishda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ahamiyati kattadir. O'zbekiston Respublikasida Biologik xilma-xillikni saqlash Milliy strategiyasi va harakatlar rejasining tasdiqlanishi bioxilma-xillikni saqlab qolish yo'lidagi ulkan ishlardan biri bo'ldi. Bu strategiyaning asosiy vazifalaridan biri - mamlakat umumiy maydonining **10 %** ga yaqin qismini qamrab oladigan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar barqaror tizimini tashkil qilishdan iboratdir. **2004 yilning** dekabr oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan **"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"**gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Mazkur qonun **"Biologik xilma-xillikni saqlash to'g'risida"**gi, **"Yovvoyi hayvonlarning ko'chib yuruvchi turlarini muhofaza qilish to'g'risida"**gi, **"Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan, asosan suvda suzuvchi qushlar**



yashash joylari
hisoblangan suv-botqoq
hududlar to'g'risida"gi
Xalqaro Konvensiyalar
yuzasidan olingan
majburiyatlarning
bajarilishini ta'minlashga
qaratilgan. O'tgan 2009
yilda Buxoro viloyatining

To'dako'l, Xadicha, Zikri suv havzalaridagi qushlarni hisobga olish ishlari bajarildi va natijada qishlaydigan qushlar sonining keskin kamayganligi qayd etildi; Toshkent viloyatida kamyob va ovbop qushlar turlari bo'yicha kadastr tadqiqotlari o'tkazildi; Xisor qo'riqxonasi atrofida umurthali hayvonlarni, "*Dalvarzin*" ovchilik xo'jaligida qirg'ovullarni hisobga olish ishlari amalga oshirildi, natijada qirg'ovullar sonining ancha ko'paygani ma'lum bo'ldi.

Sirdaryo viloyatidagi "*Sayxun*" xo'jaligida hayvonlarning ovbop turlarini hisobga olish ishlari natijasida: sirdaryo qirg'ovuli - **610-630 bosh**; katta tomoq - **450-500 bosh**; to'ng'iz - **8-10 bosh**; tolay quyoni **40-45 bosh**; tulki - **10-15 bosh** ekanligi; bo'rsiq - **uch-to'rt oilaligi** aniqlandi; Farg'ona vodiysi tabiiy o'simliklari va yer usti umurtqalilar faunasini inventarizatsiyadan o'tkazish ishlari bajarildi; global miqyosda yo'qolib ketish xavfidagi qush turi - sterxning O'zbekiston hududidan uchib o'tish yo'lini aniqlash bo'yicha ikkinchi xalqaro ekspeditsiya o'tkazildi. "*Jayron*" ekomarkazida buxoro qo'yini ko'paytirish ishlari amalga oshirilmoqda. hozirgi kunda ekomarkazda **bir bosh burama shohli echki**, **10 bosh buxoro qo'yi** saqlanmoqda, o'tgan yili **3 bosh qo'zi** dunyoga keldi. "*Jayron*" ekomarkazi hududini kengaytirish uchun Buxoro viloyat hokimining qarori bilan qo'shimcha **9 369 ga** yer maydoni ajratildi hamda qo'shimcha **4500 ga** yer maydonini berish bo'yicha fermer xo'jaliklari bilan tushuntirish ishlari olib borilmoqda. "*Jayron*" ekomarkazini yanada jihozlash uchun Sho'rtangazkimyo kompleksi tomonidan **100 mln.so'm** va tabiatni muhofaza qilish

mablag'lari hisobidan **6 mln.so'm** ajratildi. Joriy yilning **17- mart** kuni Qozog'iston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahriga tashrifi chog'ida O'zbekiston Respublikasi hukumati hamda Qozog'iston Respublikasi hukumati o'rtasida "**Sayg'oqning muhofazasi, uni ko'paytirish va foydalanish bo'yicha**" O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi milliy ijrochi agentlik bo'lgan xalqaro tabiatni muhofaza qilish loyihalarini ro'yobga chiqarilishi davom ettirilmoqda: bunga "Qoraqalpog'iston hududidagi Amudaryo deltasida to'qay o'rmonlari va muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimlarini saqlab qolish" loyihasi, BMT TDG/GEFning "Rio Konvensiyalarini bajarilishi bo'yicha maqsadli institutsional kuchaytirish va mahoratni rivojlantirish orqali milliy salohiyatni mustahkamlash", "O'zbekistonning neft va gaz sektoriga bioxilma-xillik tamoyillarini integrallashtirish" kabi o'rta masshtabli loyihalari bajarilmoqda. Umuman, O'zbekistonda barqaror rivojlanishni ta'minlash borasida bioxilma-xillikni saqlash va muhofaza qilish muhimligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Xulosa

Bioxilma-xillik tabiatning ko'rki, manzarasi, chiroyi hisoblanadi. Mohiyatiga ko'ra bioxilma-xillikda inson hayotining ajralmas boyligi mujassam bo'lib, uni muhofaza qilish insoniyatning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi

Aytish o'rinliki, bioxilma-xillik eroziya, sel, gravitatsiya jarayonlarining oldini olishda eng samarali omil sanaladi. Shu jihatdan o'simlik va hayvonot dunyosi turlarini o'rganish hamda muhofaza tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tabiatdagi bor mavjudot bitta ekotizimda hayot kechiradi. Qadimiy manbalarda hayvonot olamiga shafqatli bo'lish haqida ko'plab bitiklar yozib qoldirilgan. Zero, hududimiz flora va faunasidagi har qanday turlarni muhofazalash uchun har birimizning ongi-shuurimizda shafqat hissini shakllantirishimiz, ayniqsa, yoshlarimizni shu ruhda tarbiyalash muhimdir.



Fodalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston XX1-asr bo'sag'asida; xavfsizlikga taxtid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari; O'zbekiston, 1997-326 b
2. Muradov Sh.O. i dr. Ekologiya ch. 1 “Obshaya ekologiya”. INK Chinor, 2002-164 s.
3. Muradov Sh.O., Valukonis G.Yu., Muradov F.Sh. Ekologiya ch.2. “Prikladnaya ekologiya” bioraznoobraziy i ustoychivost'-Toshkekt. 2003-160
4. Dedyu I.I. Ekologicheskiy ensiklopedicheskiy slovar.-Keshinev: izd-vo MSE 1990-406 s.
5. Bioxilma-xillikni saqlash. Milliy strategiya va xarakat rejasi-O'z.R.Vazirlar Maxkamasining qarori № 139-son 1998 y.